

O'ZBEKSITON FLORASIDA TARQALGAN *OXYTROPIS* DC. TURKUMI TURLARINING FITOETIMOLOGIYASI

D.E. Turdiyev, tayanch doktorant, O'zR FA Botanika instituti

O.T. Turginov, katta ilmiy xodim, O'zR FA Botanika instituti

B.I. Boymamatov, katta ilmiy xodim, Surxon davlat qo'riqxonasi

doston.turdiyev.91@mai.ru; orzimat@mail.ru; boymamataovbobur96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi marotaba Fabaceae oilasiga mansub O'zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* DC. turkumi turlarining fitoetimologiyasi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hudud florasida tarqalgan 66 turning 20 foizi turning tip namunasini tergan yoki uni birinchi bor tavsiflagan olim sharafiga nomlanagan. 35 foizi tur ilk bor terilgan joy yoki uning tarqalish hududiga asoslanib nomlangan. 45 foizi o'simlik tuzilishi yoki morfologik belgilariga asoslanib nom berilgani ma'lum bo'ldi.

Kalit so'zlar: Gulobi, morfologiya, *Oxytropis*, takson, tip, Etimologiya.

ФИТОЭТИМОЛОГИЯ ВИДОВ РОДА *OXYTROPIS* DC., РАСПРОСТРАНЕННЫХ ВО ФЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА

Д.Э. Турдиев, базовый докторант, Институт ботаники АН РУ

О.Т. Тургинов, старший научный сотрудник, Институт ботаники АН РУ

Б.И. Боймаматов, старший научный сотрудник, Сурханский государственный заповедник

doston.turdiyev.91@mai.ru; orzimat@mail.ru; boymamataovbobur96@gmail.com

Аннотация: В данной статье впервые представлены результаты этимологического анализа названий видов рода *Oxytropis* DC. (Fabaceae) флоры Узбекистана. Установлено, что из 66 видов *Oxytropis*, распространенных на территории Узбекистана, 20% названы в честь ученого, собравшего типовой экземпляр вида или впервые описавшего его, 35% видов названы по месту первой находки вида или ареалу его распространения, этимология названий 45% видов отражает их морфологические особенности.

Ключевые слова: Морфология, номенклатура, Остролодочник, таксон, тип, этимология, *Oxytropis*.

PHYTOETYMOLOGY OF *OXYTROPIS* DC. SPECIES DISTRIBUTED IN FLORA OF UZBEKISTAN

D.E. Turdiev, PhD student, Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

O.T. Turginov, Senior Researcher, Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

B.I. Boymamatov, Senior Researcher, Surkhan State Reserve

doston.turdiyev.91@mai.ru; orzimat@mail.ru; boymamataovbobur96@gmail.com

Annotation: For the first time, this article presents the results of research on the phytoetymology of *Oxytropis* DC. species belonging to the Fabaceae family distributed in the

flora of Uzbekiston. According to the results of the study, 20% of the 66 species distributed in the flora of the region are named after the scientist who collected the type specimen of the species or described it for the first time. 35 percent are named based on the place where the species was first collected or its distribution area. It turned out that 45 percent were named based on plant structure or morphological features.

Keywords: Gulobi, morphology, *Oxytropis*, taxon, type, etymology.

Kirish

Fitoetimologiya - bu o'simlik nomlarining haqiqiy ma'nosi va kelib chiqishini o'rganadigan fan [1]. O'simliklarni va hayvonlarni nomlashda turlarning o'ziga xos morfologik belgilari, olim yoki shaxs sharafiga, topilgan joyiga, tarqalish hududiga yoki xalq tilidagi nomlariga asoslanadi. Turning nomi umumiy nomning ikkilik birikmasidan iborat bo'ladi [2].

Taksonlar nomlari ya'ni uning etimologiyasini aniq belgilash har doim ham mumkin emas, ayniqsa lotin tilidan olingan so'zlar birmuncha qiyinchilik tug'diradi [1]. O'simlik nomlarini o'rganish tur haqida tushuncha hosil bo'lishida asos bo'lib xizmat qiladi. Fitoetimologik tadqiqotlar so'nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan ayrim turkumlar va yirik taksonlar bo'yicha olib borilmoqda [4,5]. Xususan, A. Balkrishna (2022) tomonidan chop etilgan asarda 75000 dan ortiq o'simlik oilalari, turkumlari va turlarining fitoetimologiyasi keltirilgan [6].

So'nggi yillarda O'zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* DC. turkumi turlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda [7,8]. Turkum turlari asosan tog'li va tog'oldi hududlarida tarqalgan. Tadqiqotning maqsadi O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* DC. turkumi turlarining fitoetimologiyasini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* DC. turkumi turlari tanlab olindi. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra 66 ta tur mavjudligini ko'rsatmoqda. Takson nomlarining o'zbekcha ma'nosini aniqlashda "Флора Узбекистана", <https://www.etymonline.com> ma'lumotlar bazasi hamda N.N Zabinkova, M.E. Kirpichnikov (1957) asaridan foydalanildi.


Olingan natijalar va ularning tahlili

Umuman olganda turkumning o'zbekcha nomi ham "Oksitropis" deb nomlangan, ammo ayrim manbalarda turkum "Gulobi" nomi bilan atalgan [13] Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* DC. turkumining 66 turining fitoetimologiyasi o'rganildi. Natijada turlarni taksonomik nomlashda qo'llaniladigan nomlar uchta asosiy manbaga asoslanganligi aniqlandi. Bular:

- I. Biror shaxs yoki olimga tegishli takson nomlari
- II. Locus classicus (tip)ga tegishli takson nomlari
- III. O'simliklarning tuzilishi va morfologik belgilariga asoslangan takson nomlari

Oxytropis turkumi turlarining 3 ta asosiy nomenklatura manbalariga muvofiq etimologik tahlili shuni ko'rsatdiki: jami 66 ta turdan 20 % i (13) turining tip namunasini torgan yoki uni birinchi bor tavsiflagan olim sharafiga nomlanagan. 35 % i (23) tur ilk bor terilgan joy yoki uning tarqalish hududiga asoslanib nomlangan. 45 % i (30) o'simlik tuzilishi yoki morfologik belgilariga asoslanib nom berilgani ma'lum bo'ldi [1-rasm]. Tahlil natijalariga ko'ra, turlarni nomlashda eng ko'p turlarning tuzilishi va morfologik belgilariga asoslanganligi ma'lum bo'ldi.

1-rasm. *Oxytropis* DC. turkum turlarining fitoetimologik tahlili. Izoh. I. Biror shaxs yoki olimga tegishli takson nomlari; II. Locus classicus (tip)ga tegishli takson nomlari; III. O'simliklarning tuzilishi va morfologik belgilariga asoslangan takson nomlari



2-rasm. *Oxytropis* DC. turkumining ayrim turlari:
a-*O. capusii*, b-*O. fedtschenkoana*, c-*O. tachtensis*, d-*O. aulieatensis*

Quyida har bir turning lotincha nomi qanday ma'no anglatishi va tur o'zbekchada qanday nom bilan atalishi keltirilgan.

1. ***Oxytropis albovillosa*** B.Fedtsch.

Etimologiyasi: Turning nomi uning morfologik tuzilishidan kelib chiqqan. Lotinchada *albus*-oq rang, *oqlik* ma'nolarini, *villus*-uzun, nozik tuklar degan ma'noni beradi.

O'zbekcha: Oqpaxmoq gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

2. ***Oxytropis anaulgensis*** Pavlov

Etimologiyasi: Ushbu tur tip namunasi terilgan joy nomi bilan atalgan. *Onao'lgansoy* Ugom tizmasida joylashgan soy bo'lib, Piskom daryo havzasiga kiradi. *Sis-qo'shimchasi* Yunonchada *dan* degan ma'noni bildiradi.

O'zbekcha: Onao'lgan gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako't.

3. ***Oxytropis arassanica*** Gontsch.

Etimologiyasi: Bu tur joy nomi bilan atalgan bo'lib, tip na'munasi Chotqol tizmasining Arashan ko'li yaqinidan terilgan. *Icus*-lotinchada so'z yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

O'zbekcha: Arashan gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

4. ***Oxytropis aspera*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishidan kelib chiqib nomlangan. *Asperatus*-lotinchada qo‘pol degan ma‘noni bildiradi.

O‘zbekcha: G‘adir-budur gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

5. ***Oxytropis aulieatensis*** Vved.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud nomi bilan atalgan. Avliyoota (Аулие-Ата) Qozog‘istonning Jambil viloyati hududida joylashgan, *Sis-qo‘shimchasi* Yunonchada *dan* degan ma‘noni bildiradi.

O‘zbekcha: Avliyoota gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

6. ***Oxytropis babataghi*** Abduss.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud nomi bilan atalgan. Bobotog‘ Pomir-Oloy tizmasiga kiruvchi keksa tog‘ hisoblanadi.

O‘zbekcha: Bobotog‘ gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

7. ***Oxytropis baissunensis*** Vassilcz.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud nomi bilan atalgan. Boysun tog‘i Suxondaryo viloyati hududida joylashgan va shu nom bilan ataluvchi ma‘muriy birlikka ham ajratiladi. *Ensis*-so‘z yasovchi birikmasi lotinchada “mansublik” “mansub” yoki “kelib chiqishi” ma‘nolarini bildiradi.

O‘zbekcha: Boysun gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

8. ***Oxytropis caespitosula*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Caespitosa*-lotincha so‘z bo‘lib, bu turning odatiga ishora qilib, “*tuplarda o‘sadigan*” degan ma‘noni anglatadi.

O‘zbekcha: Chim gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

9. ***Oxytropis canopatula*** Vassilcz.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Canopy*-lotinchada “*soyabon*” degan ma‘noni anglatadi.

O‘zbekcha: Oqishtarvaqaylagan gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

10. ***Oxytropis capusii*** Franch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan Fransuz tadqiqotchisi *Guillaume Capus* (1857-1931) nomi bilan atalgan. Tadqiqotchi 1880-1882 yillarda O‘rta Osiyo florasini o‘rganishga qaratilgan dala dadqiqotlarini amalga oshirgan.

O‘zbekcha: Kapyu gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

11. ***Oxytropis chesneyoides*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O'zbekcha: Chesneyasimon gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

12. ***Oxytropis didymophysa*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O'zbekcha: Qo'shpufak gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

13. ***Oxytropis fedtschenkoana*** Vassilcz.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan mashxur botanik olim B.A. Fedchenko nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Fedchenko gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako't.

14. ***Oxytropis fedtschenkoi*** Vassilcz.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan mashxur botanik olim B.A. Fedchenko nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Fedchenko gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

15. ***Oxytropis glabra*** DC.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Glaber-*lotinchada "tuksiz", "silliqlik" degan ma'nolarni beradi.

O'zbekcha: Yalong'och gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

16. ***Oxytropis gymnogyne*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Gymnos-*yunonchada "yalong'och" ma'nosini beradi.

O'zbekcha: Yalong'ochtuguncha gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako't.

17. ***Oxytropis humifusa*** Kar. et Kir.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Humus-*lotinchada "tuproq" va *fusus* "yiqilgan" degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Yerbag'irlovchi gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

18. ***Oxytropis immersa*** (Baker ex Aitch.) Bunge ex B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Immersus-*iucundus "suvga g'arq bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi.

O'zbekcha: O'yiqli gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

19. ***Oxytropis integripetala*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Integratus-* lotinchada “butun, to‘liq” degan ma’noni anglatadi.

O‘zbekcha: Yaxlit gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

20. ***Oxytropis iskanderica*** B.Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud nomi bilan nomlangan.

O‘zbekcha: Iskandar gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

21. ***Oxytropis jucunda*** Vved.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Iucundus-* iucundus “yoqimli” degan ma’noni anglatadi.

O‘zbekcha: Bezagi gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

22. ***Oxytropis kamelinii*** Vassilcz.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan mashxur botanik olim R.V. Kamelin sharafiga nomlangan.

O‘zbekcha: Kamelin gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

23. ***Oxytropis kuhistanica*** Abduss.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud nomi bilan nomlangan. *Kuhiston-*forschada “tog‘ mamlakati” degan ma’noni anglatadi.

O‘zbekcha: Ko‘histon gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

24. ***Oxytropis kuramensis*** Abduss.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya’ni tog‘ nomi bilan nomlangan.

O‘zbekcha: Qurama gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

25. ***Oxytropis lapponica*** (Wahlenb.) J. Gay

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud nomi bilan nomlangan. *Laplandiya-*Shimoliy Yevropadagi tarixiy hudud.

O‘zbekcha: Laplandiya gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

26. ***Oxytropis lasiocarpa*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O‘zbekcha: Paxmoqmeva gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

27. ***Oxytropis lehmannii*** Bunge

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan tabiatshunos olim A.A. Leman nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Leman gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

28. ***Oxytropis leptophysa*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O'zbekcha: Yupqapufak gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako't.

29. ***Oxytropis leucocyanea*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Leukos-*lotinchada “*tiniq, yorqinlik*” degan ma'noni anglatadi.

O'zbekcha: Moviy gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

30. ***Oxytropis lipskyi*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan botanik olim V.I. Lipskiy nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Lipskiy gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

31. ***Oxytropis lithophila*** Vassilcz.

Etimologiyasi: Tur tarqalish joyiga qarab nomlangan. *Lithos-*yunonchada “*tosh*”, *philos* “*sevuvchi*” degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Toshsevar gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

32. ***Oxytropis litwinowii*** B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan botanik olim D.I. Litvinov nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Litvinov gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

33. ***Oxytropis macrocarpa*** Kar. et Kir.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Makros-*lotinchada “*uzun, katta*”, *carpo* “*meva*” degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Kattameva gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

34. ***Oxytropis macrodonta*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Makros-*lotinchada “*uzun, katta*”, *dentis* “*tish*” degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Kattatish gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

35. ***Oxytropis maidantalensis*** B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya'ni tog' nomi bilan nomlangan.

O'zbekcha: Maydontol gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

36. ***Oxytropis megalorrhyncha*** Nevski

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Megas-*yunonchada "buyuk, katta", *lorrhyncha* "uzunlik" ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Kattaxartum gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

37. ***Oxytropis michelsonii*** B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan botanik olim A.I. Mixelson nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Mixelson gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

38. ***Oxytropis microcarpa*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Mikros-*lotinchada "kichik", *carpo* "meva" degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Maydameva gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

39. ***Oxytropis microsphaera*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Mikros-*lotinchada "kichik", *sphaira* "shar, globus, to'p" degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Maydapufak gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

40. ***Oxytropis nikolai*** Filimonova & Abduss.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan botanik olim N.F. Goncharov nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Nikolay gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

41. ***Oxytropis ornata*** Vassilcz.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Ornatus-*lotinchada "bezakli, bezatilgan" degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Bezalgan gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

42. ***Oxytropis ovczinnikovii*** Abduss.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan botanik olim P.N. Ovchinnikov nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Ovchinnikov gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

43. ***Oxytropis pamiroalaica*** Abduss.

Etimologiyasi: Tur tarqalgan hudud nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Pomiroloy gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

44. ***Oxytropis pilosissima*** Vved.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Pilosus*-lotinchada “tukli” degan ma’noni anglatadi.

O'zbekcha: Tig‘izoqtuk gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

45. ***Oxytropis platonychia*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Paronychia*-yunonchada “tirnoq” degan ma’noni anglatadi.

O'zbekcha: Yassitirnoq gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

46. ***Oxytropis poncinsii*** Franch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan botanik olim M.E. de Poncins nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Ponsen gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

47. ***Oxytropis pseudoleptophysa*** Boriss.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O'zbekcha: Yupqa pardali gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako‘t.

48. ***Oxytropis pseudorosea*** Filimonova

Etimologiyasi: Tur morfologik xususiyatiga qarab nomlangan. *Pseudo*-lotinchada “yolg‘on, soxta”, *roseatus* “och qirmizi yoki pushti” rang degan ma’nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Nimpushtirang gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

49. ***Oxytropis riparia*** Litv.

Etimologiyasi: Tur o‘sish joyiga qarab nomlangan. *Riparius*-lotinchada “daryo qirg‘og‘i” degan ma’noni anglatadi.

O'zbekcha: Qirg‘oqbo‘yi gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

50. ***Oxytropis rosea*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Roseatus*-lotinchada “och qirmizi yoki pushti” rang degan ma’nolarni anglatadi.

O'zbekcha: Pushti gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

51. ***Oxytropis roseiformis*** B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan. *Roseatus-* lotinchada “och qirmizi yoki pushti” rang, *formis* “o‘xshash” degan ma’nolarni anglatadi.

O‘zbekcha: Pushtirang gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

52. ***Oxytropis savellanica*** Bunge ex Boiss.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya’ni tog‘ nomi bilan nomlangan. *Sebelan* Eron shimolida joylashgan, vulqon hosil qilgan tog‘ hisoblanadi.

O‘zbekcha: Savellan gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

53. ***Oxytropis schachimardanica*** Filimonova

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya’ni Shoximardon qishlog‘i nomi bilan nomlangan.

O‘zbekcha: Shoximardon gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

54. ***Oxytropis seravschanica*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya’ni tog‘ nomi bilan nomlangan.

O‘zbekcha: Zarafshon gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako‘t.

55. ***Oxytropis sewerzowii*** Bunge

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan olim N.A. Severtsov nomi bilan atalgan.

O‘zbekcha: Severtsov gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

56. ***Oxytropis submutica*** Bunge

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O‘zbekcha: To‘mtoq gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako‘t.

57. ***Oxytropis susamyrensis*** B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya’ni tog‘ nomi bilan nomlangan.

O‘zbekcha: Susamir gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

58. ***Oxytropis tachtensis*** Franch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya’ni Taxtaqoracha dovoni nomi bilan nomlangan.

O'zbekcha: Taxt gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

59. ***Oxytropis terekensis*** B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya'ni Terek dovoni nomi bilan nomlangan.

O'zbekcha: Terek gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

60. ***Oxytropis tianschanica*** Bunge

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya'ni tog' nomi bilan nomlangan.

O'zbekcha: Tiyan Shan gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

61. ***Oxytropis trajectory*** B. Fedtsch.

Etimologiyasi: Tur o'sish joyiga qarab nomlangan. *Trajectus*-lotinchda "dovon" degan ma'noni anglatadi.

O'zbekcha: Dovon gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

62. ***Oxytropis trichocalycina*** Bunge ex Boiss.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O'zbekcha: Tuklikosabarg gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

63. ***Oxytropis tschimganica*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya'ni tog' nomi bilan nomlangan.

O'zbekcha: Chimyon gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

64. ***Oxytropis tyttantha*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur morfologik tuzilishiga qarab nomlangan.

O'zbekcha: Mayda gulli gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

65. ***Oxytropis ugamica*** Gontsch.

Etimologiyasi: Tur tip namunasi terilgan hudud, ya'ni tog' nomi bilan nomlangan.

O'zbekcha: Ugom gulobi.

Mahalliy nomi: Pufako't.

66. ***Oxytropis vvedenskyi*** Filimonova

Etimologiyasi: Tur tip namunasini tergan mashxur botanik olim A.I. Vvedenskiy nomi bilan atalgan.

O'zbekcha: Vvedenskiy gulobi.

Mahalliy nomi: aniqlanmadi.

Xulosa

O'simlikni nomlash bu tarixiy jarayon bo'lib, muallifdan bilim va tajribani talab etadi. Sababi har-bir o'simlik o'zining tuzilishi, morfologik xususiyatlari va belgilari, tarqalish hududi, hayotish shakli hamda boshqa xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. Turlarni nomlashda tuzilishi yoki morfologik belgilariga asoslanib nom berish, bu o'simlik haqida tasavvur hosil bo'lishida birmuncha qulay hisoblanadi. Turkum turlarining aksariyat qismining mahalliy nomlari aniqlanmadi. Bunga sabab turkum turlarining aholi yashash punktlaridan uzoqroqda, asosan tog' va tog'oldi mintaqalarida tarqalganligini bilan izohlash mumkin. Faqatgina *Physocarpon* Gontsch. seksiyasiga kiruvchu turlarni meva tuzilishidan kelib chiqib mahalliy aholi tomidan "Pufako't" deb nomlanishi dala tadqiqotlarida aniqlandi. O'simlikni nomlari bo'yicha tahlilini amalga oshirish turni yanada mukammalroq o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Balalaieva O. Etymology of Latin and Ukrainian Names of Cultivated Plants // Scientific journal «International Journal of Philology». – T. 14. – №. 3. – C. 27-37.
2. Özdikmen H. Etymology of Cerambycoidea in Turkey: Part III–Taxon names attributed to diagnostic adjectives, objects, concepts, host plants, etc. Coleoptera: Cerambycoidea) // Munis Entomology & Zoology. – 2022. – T. 17. – №. 2.
3. Balkrishna, A., Singh, A., Joshi, B., Mishra, R. K., Shankar, R., Tyagi, P., & Srivastava, A. (2022). Ecology, distribution mapping, Vedic nomenclature and conservation implications of Genus *Artemisia* (Asteraceae) in India. *Journal of Medicinal Plants Studies* 2022; 10(6): 109-126;
4. Balkrishna, A., Prajapati, U. B., Srivastava, A., & Mishra, R. (1906). Phytoetymology and ethnobotany of indigenous or introduced gymnosperms in India. *Taiwania*, 330, 42.; Singh, H. (2008). Importance of local names of some useful plants in ethnobotanical study. *Indian Journal of Traditional Knowledge*, 7(2), 365-370.
5. Balkrishna A. (2022) *World Botanical Dictionary (Phytoetymology of 75,000 Names of Plant Families, Genera and Species) Set of 5 Volumes*. Pp 6050
6. Турдиев Д.Э., Селютина И.Ю., Газиев А.Д., Распространение и оценка состояния редких видов *Oxytropis* DC. во флоре Узбекистана // Растительный мир Азиатской России, 2023, № 3, с. 255–270.
7. Турдиев Д.Э. ва бошқалар., Ўзбекистон флорасида тарқалган *Oxytropis* DC. туркум турларининг қисқача географик тахлили // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2021. №. 6. – 94-98 б.
8. Гончаров Н.Ф. Род *Oxytropis* DC. // Флора Узбекистана. 1955. Т 3. – С. 688-714.

9. Филимонова З.Н. Род *Oxytropis* DC. // Определитель растений Средней Азии. 1983. Т 7. – С. 323-368.
10. Vilimek V. Folk etymology of medicinal plant names in Těšín Silesia: a probe into the current state / //Вестник славянских культур. – 2022. – №. 64. – С. 78-86.
11. Topal İ. Lexical Opportunities in English through the Lens of Etymology // The Journal of English Language Teaching in Foreign Language Context. – 2023. – Т. 8. – №. 2.
12. Забинкова, Н.Н., & Кирпичников, М.Э. (1957). Латинско-русский словарь для ботаников. Alexander Doweld.
13. Pratov O‘.P., Nabiyeu M.M. O‘zbekiston yuksak o‘simliklarining zamonaviy tizimi. Toshkent. O‘qituvchi, 2007. 62 b.